

Belgilab berilgan vazifalar ijrosi yuzasidan 2024-yilning 4-choragida amalga oshirilgan ishlar

Boshqarmada o'tkazilgan kengaytirilgan Kengash yig'ilishini boshqarma boshlig'i A.Tashnazarov ochib berdi va yig'ilish kun tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirib o'tdi.

Yig'ilishda, Navoiy viloyati statistika boshqarmasi boshlig'i tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-fevraldagi "Statistika ishlarini tashkil etish va yuritish tizimini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PF-27-son Farmoni va joriy yilning 24-fevral kuni tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-75-son qaroriga alohida to'xtalib o'tildi.

Takidlandiki, yangi farmon bilan Prezident huzuridagi Statistika agentligi Milliy statistika qo'mitasi sifatida qayta tashkil etildi va Statistika ishlari samaradorligini yanada oshirishning quyidagi ustuvor yo'nalishlari belgilandi, jumladan:

- makroiqtisodiyot va tarmoqlar darajasida statistik kuzatuv o'tkazish tizimini hamda ularning metodologiyasini xalqaro standart va tavsiyalarga muvofiq takomillashtirib borish;

- integratsiya jarayonlarini kengaytirish orqali statistik hisobotlarni qisqartirish va biznesga hisobot topshirish yukini kamaytirib borish;

- "mahalladan – respublikagacha" tamoyili bo'yicha statistik ko'rsatkichlarni shakllantirish tizimini yaratish orqali ma'lumotlarning ishonchliligini ta'minlash;

- Rasmiy statistika sohasida islohotlarni chuqurlashtirish va tizim faoliyatini transformatsiya qilish bo'yicha "yo'l xaritasi";

2025-yil yakunigacha "Hududlar statistikasi" axborot tizimi ishga tushiriladi.

Bundan tashqari, 2025-yil 1-iyuldan YATTLarni davlat ro'yxatidan o'tkazishni ular shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyat turlari hamda iqtisodiy faoliyat turlarining umumdavlat tasniflagichi asosida amalga oshiriladi.

Shu bilan bir qatorda, 2025-yil 24-fevral kuni tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-75-son qarori bilan Statistika ishlari samaradorligini yanada oshirishning quyidagi ustuvor yo'nalishlari belgilandi, jumladan:

- Qarorga ko'ra, ichki va tashqi foydalanuvchilar uchun zarur bo'lgan statistik ma'lumotlarni, shu jumladan, aholi daromadlari va ularning manbalarini baholash uslubiyotini takomillashtirish;

- mikro darajada kuzatuvlarni amalga oshirish va statistik ko'rsatkichlarni shakllantirish uslubiyotini ishlab chiqish;

- statistika ma'lumotlaridan foydalanuvchilar bilan samarali qayta aloqani (mijozga yo'naltirilganlikni) joriy etish.

Shuningdek, Statistika dasturi doirasida boshqarma va tuman (shahar) statistika bo'limlari tomonidan 2024- yilning 4-choragida amalga oshirilgan ishlar, pirovardida ishlab chiqilgan tahliliy-statistik ma'lumotlarni keltirib o'tdi.

Jumladan, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024- yilning yanvar-dekabr oylarida Navoiy viloyatining yalpi hududiy mahsuloti hajmi joriy narxlarda **117 297,8** mlrd. so'mni tashkil etdi va 2023-yil bilan taqqoslaganda **7,7** foizga o'sdi.

Shuningdek, viloyat korxonalarini tomonidan 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida **145,1** trln. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi indeksi **108,2** foizni tashkil etdi.

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi **21,8** trln. so'mni tashkil etib, 2023- yilga nisbatan o'sish sur'ati **103,9** foizga yetdi.

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmida 2023- yilga nisbatan (**117,4** foiz) o'sish kuzatildi.

Viloyatda jami **11,9** trln. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati **113,9** foizga teng bo'ldi.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni 2025- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) **29 599** tani tashkil etib, ulardan **18 515** tasi yoki **62,5** foizi faoliyat ko'rsatmoqda. 2024- yilda viloyatda **3 046** ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, 2023- yilga nisbatan **864** taga kamaygan.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024- yilning yanvar-dekabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **20,1** trln. so'mni, 2023-yilga nisbatan o'sish sur'ati **112,1** foizni tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi **15** trln. so'mni tashkil etib, 2023- yilga nisbatan **109,9** foizga oshdi. Viloyatning tashqi savdo aylanmasi 2024- yilning yanvar- dekabr oylarida **1 586,1** mln. AQSH dollarini, jumladan eksport **1 109,5** mln. AQSH dollarini va import **476,6** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025- yilning 1-yanvar holatiga viloyat bo'yicha doimiy aholi soni **1 090,0** ming kishini tashkil etib, yil boshidan **19,4** ming kishiga yoki **101,8** foizga o'sdi.